

Alisher NAVOIY

MEZON UL-AVZON*

BISMILLAHIR RAHMONIR RAHIM

Komil hamd va vofir shukr ul soni'g'akim inson xilqati baytining nazmin anosir to'rt rukni bila tuzdi va bu bayt arkonin nazm ahlining solim tab' va mustaqim zehni ikki misrai bila manzum ko'rguzdi. Va jadid na't va qarib durud ul nozimgakim, olam ahli intizomi uchun shariat mezonini adl avzoni bila rostlik siqli hashr mezonig'a madad yetkurdi.

Ammo ba'd, solim va mavzun tab'lig' nazm ahliga va matbu' tab' va muloyim zehnlik she'r xaylig'a ma'ruz ulkim, bu banda hazrati sulton us-salotin muizz us-saltanati vad-dunyo vad-din Sulton Husayn Bahodirxon xalladallohu mulkahu va adoma umrahu¹ va davlatahuning har nav' nazm bobida ta'lim va tarbiyatlari bila va har sinf she'r uslubida tafhim va taqviyatlari bila ajam shuarosi va furs fusahosi har qaysi uslubdakim, so'z arusig'a jilva va namoyish berib erdilar, turk tili bila qalam surdum va har nechuk qoidadakim, ma'ni abkorig'a ziynat va oroyish ko'rguzub erdilar, chig'atoy lafzi bila raqam urdum. Andoqkim, to bu mazkur bo'lg'on til va lafz binosidur, hech nozimg'a bu dast bermaydur va hech roqimg'a bu tuyassar bo'lmaydur.

Ammo chun ul Hazratning sharif majlislari maoniy javohirining koni erdi va latif tab'lari nazm qavoidining mezoni va zamon shuarosi oliy dargohda xodim va davron bulag'o va zurafosi maoliy borgohda mulozim erdilar, mudom nazm va nasrdin so'z mazkur va aladdavom she'r va muammodin tab' natoyiji mastur bo'lur erdi va ul hazratning daqoyiqshior tab'lari nazm oyini va intishorig'a tolib va haqoyiqosor zehnlari she'r tartibi va ishtihorig'a rog'ib; andoqli, nazm ahlining shakarrezi va muhabbat xaylining otashangezi, dardu shavq tariqining pokravi, ya'ni Amir Xusrav Dehlaviy ravvahallohu ruhahuning g'azaliyotinikim, to'rt devong'a mashhurdur, ulcha sa'y va imkoni bor, qilib, yig'durdilar va aning abyoti adadi o'n sekkiz mingg'a yetti va ani g'oyati ziynatu zeb va nihoyati takalluf va jadvalu tazhib bila zamon xushnavislarig'a kitobat qildurdilar va aning rivoj va ravnaqin quyoshdek royi olamoroy mashg'ulliqi bila falakdin oshurdilar. Chun ul malikul-kalom bu fanda mahoratu kamolidin va amiyq tab'u daqiq xayolidin ko'prak bahrda she'r aytidur va aksar nazm nomatbu' vaznda debdur va zamon zurafosidin ba'zining solim tab'i aning balog'atidin qosir va idrokidin mutahayyir, balki mutanaffir erdi. Ul Hazratning humoyun tab'larig'a g'arib ixtiroe va ajib ijтиходе keldikim, hargiz salotindin, balki shuaroyi nazm oyindin hech kimning xayolig'a kelmaydur va xotirig'a xutur qilmaydur.

Aning sharhi budurki, ul devonda har g'azal boshida ul g'azal ne bahrda va ne vaznda erkanin va arkonig'a qaysi zihof kirib, ne nav' tag'ayyur topqanin bitgaylar va sabt qilg'aylar, to barcha el ul bahr ah-volini va ul vazn ashkolini ma'lum qilg'aylar va alhaq bu xayol asru g'arib va nodir tushubdur,

* Navoiyning bu asari turkigo'y xalqlarni aruz ilmidan bahramand etish niyatida yozilgan. Shoир an'anaviy aruzga turkiy she'riyatga xos bo'lgan vaznlarni, ularning bahrularini qo'shdi.

«Mezon ul-avzon»dan avval Shayx Ahmad Taroziyning «Fununi balog'a», keyin esa Boburning «Risolai aruz»i turkiyda yaratilgan.

«Mezon ul-avzon» 1993 yilda prof. Kamol Eraslan tomonidan Turkiyada nashr etilayotgan Navoiy kulliyotining 14-jildi sifatida bosmadan chiqdi. Undagi qisqa ma'lumotnomada Navoiyning hayoti, adabiy faoliyati va asarlari adadi beriladi. Asarlar sanog'ida «Zubdat ut-tavorix» ham bor, lekin bu Navoiyning alohida asari bo'lmay, «Tarixi anbiyo va hukamo» va «Tarixi muluki Ajam»ga shoир bergen umumi nomdir.

Kirishda Kamol Eraslan aruz va aruz ilmi, bu sohadagi Navoiy xizmati haqida, jahon xazinalaridagi «Mezon ul-avzon»ning qo'lyozmalari haqida ma'lumotlar beradi. Asar matni so'ngida nusxalardagi farqlar (3 bet), matnning hozirgi turk tiliga o'girilgan matni, aruz vaznlari (5 bet) va aruz atamalari (71 bet) berilgandir.

¹ Tarj. ar.: Olloh mulkini dahlsiz va umrini uzun qilsin!

balki jam'i devon tartib bergen shuarog'a azim haqqe sobit bo'lubdur. Va bu bandaning dag'i to'rt devonig'akim, turkcha til bilan nazm topibdur va abyoti adadi yigirmi besh mingga yaqinlashibdurkim, ul Hazratning humoyun alqobig'a raqam topibdur va muzayyan bo'lubdur ham ushbu mazkur bo'lg'on dastur bila tartib berilibdur.

Chun ul Hazratning muborak xotirlari she'r buhuru avzonig'a va nazm qavoidu mezonig'a muncha moyil erdi, aruz fannida bu muxtasar sabt bo'ldi va anga «Mezon ul-avzon» ot qo'yuldi va necha qoidau doira va vaznkim, hech aruzda, misli fan vozii Xalil ibni Ahmad² va ilm ustodi Shams Qays³ kutubida va Xoja Nasir Tusiy⁴ning «Me'yor ul-ash'or»ida, balki Hazrati Maxdumiy⁵ navvara marqadahu nuran «Aruz»larida yo'q erdikim, bu faqir bu fan usulidin istixroj qilib erdikim, bu kitobg'a izofa qildim. Emdi Tengridin tavfiq tilab, ul azizlar ruhidin istimdod qilib, shuru' qililur.

Ammo bilgilkim, aruz fannikim, nazm avzonining mezonidur, sharif fandur. Nevchunkim, nazm ilmining rutbasi bag'oyat biyik rutbadur. Andoqki, haq subhonahu va taoloning kalomi majidida ko'p yerda nazm voqe' bo'lubdurki, aruz qavoldi bila rostdur. Ul jumladin biri bu oyatdurkim: «Lan tanolluvaal birra hatto tunfiquna»⁶dur, «ramali musaddasi mahzuf» voqe' bo'lubdur. Va yana budurkim: «Val-mursaloti ur-fan, fal-osifati asfan»⁷kim, vazni: «maf'ulu fo'ilotun maf'ulu fo'ilotun»dur, «muzorei musammani axrab» voqe' bo'lubdur. Va yana: «Jannoti adnin fadxulluho xolidin»⁸kim, vazni: «mustaf'ilun, mustaf'ilun, mustaf'ilon»dur va «rajazi musaddasi muzol» voqe' bo'lubdur. Va Kalomulloha ko'p yerda bu nav' voqe'dur. Va Rasul sallallohu alayhi vassallam ahodisida dag'i ham bu tariq tushubdur. Ul jumladin biri budurkim, «man akrama oliman faqad akramani»⁹kim, vazni: «maf'ulu mafoilun mafoiylu faul»dur va ruboiy vaznida «hazaji axrabi maqbizi makfufi majbub» voqe' bo'lubdur.

Va Amir ul-mo‘minin Ali¹⁰ karramallohu vajhahuning ash'ori ko'pdur, balki devoni bor. Yana mashoyix va aimma va avliyouollohdin ham ko'p azimush-sha'n elning nazmi, balki devoni va masnaviy tariqi bila kitoblari borkim, istishhodg'a hojat emas, nechunkim, xaloyiq qoshida ravshandurur va ham so'z tatvil topar. Va bu nazmlarning asli va zabitasi aruz buhur va avzonig'a mavqufdur.

Bas sobit bo'ldikim, aruz fani sharif fandur. Va bukim, bu ilmni nechun «aruz» dedilar, muxtalif aqvol bor. Ul jumladin, biri bila iktifo qilidur. Va ul budurkim, Xalil ibni Ahmad rahmatullohki, bu fanning voziidur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiy ermishki, ani «Aruz» derlar ermish va ul vodiyda a'rob uylarin tikib, jilva berib, bahog'a kiyururlar ermish. Va uyni arab «bayt» der. Chun baytlarni bu fan bila mezon qilib, mavzunini nomavzundin ayururlar, go'yoki qiymat va bahosi ma'lum bo'lur, bu munosabat bila «aruz» debdurlar. Baytniki uy oti birla otabdurlar, munosabati muni debdurlarki, uyning chun binosi to'rt rukn biladur, bu baytning ham binosi to'rt rukn biladur, bu baytda ham ma'ni haysiyatidin ko'p nimalar bo'lur, hatto uyning mahzunot va maxfiyoti o'rnig'a ham munda

² Xalil ibn Ahmad (vaf. 175/791) – Aruz ilmining asoschisi. Aruzga oid asari «Kitob ul-ayn» deb ataladi. Bir rivoyatga ko'ra u aruz haqidagi asarini Makkada, boshqasida Basrada yozgan deyiladi.

³ Shams Qays – Shamsuddin Muhammad bin Qays Roziy (vaf. 628/1230 – 31) Eronning Ray shahrida tug'ilgan. Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, Buxoro, Marv, Iroqda yashagan, mo'g'ullar istilosiga yillarida sarson-sargardonlikda mashaqqatlar chekkan. Uning «Al-mo‘jam» asari mashhur bo'lgan.

⁴ Xoja Nasir Tusiy (597/1200 – 1201 – 672/1273 – 1274) – «Asos ul-iqtibos» va «Me'yor ul-ash'or» nomli aruzga oid asarlari bor.

⁵ Maxdumi Nuran – Abdurahmon Jomiyning laqabi.

⁶ Tarj- ar.: «Suygan narsalaringizni infoq-ehson qilib bermaguningizcha hargiz yaxshilikka (jannatga) yetmagaysiz» (Qur'on. «Oli Imron» surasi, 92-oyat).

⁷ «Paydar-pay yuboriladigan shamollar va qutiradigan bo'ronlarga qasam» (Qur'on. «Var-mursalat» surasi, 21. 1, 2-oyatlar).

⁸ «[Taqvodor zotlar uchun] barcha darvozalari ochiq mangu jannatlar bordir. Unga mangu qolg'uvchi bo'lgan hollaringizda kiringiz» (Qur'on. «Sod» va «Zumar» suralari. 50 va 70-oyatlar).

⁹ Amir Xusrav Dehlaviy – Qarang: Ushbu kitob, izohlar, 311-bet.

¹⁰ Amir al-mo‘minin Ali – Hazrat Ali ibn Abu Tolib (661 yilda qatl qilingan). Muhammad payg'ambarning amakivachchasi va kuyovi. U «xulafo ar-roshidin» (to'g'ri yo'lidan boruvchi xalifalar) deb atalgan («Choryorlar» ham deydilar) dastlabki to'rt xalifadan to'rtinchisi. Islomdagi ikki asosiy oqimlardan biri «shialik»ni tashkil etgan va shialarning birinchi imomi.

maxfiy va maktum xayolot va maoni topsa bo‘lur, bu munosabatlardin ani «bayt» debdurlar.

Ammo ma’lum bo‘lsunkin, aruz fani ahli nazm avzoni usulining binosin uch rukng‘a qo‘yubdurlarkim, alarni sabab va vata durburlar.

Sabab ikki nav’dur: sababi xafif va ul lafzedur mushtamil: bir mutaharrik va bir soking‘a, andoqkim, may va nay va gul va mul. Va sababi saqiyal va ul lafzedur mushtamil: ikki mutaharrikka, andoqkim, yuzi va ko‘zi va xati va qadi.

Va vata durbagi ikki qismdur: va vata duri majmu’ va ul lafzedur: ikki burunqi harfi mutaharrik va bir so‘ngqi harfi sokin, andoqkim, shajar va samar va Xo‘tan va Adan. Va vata duri mafruq va ul lafzedur: burunqi va so‘ngqi harfi mutaharrik va o‘rtanchi harfi sokin, andoqkim, xoma va noma va noqa va foqa.

Fosila dag‘i ikki nav’dur: fosilai sug‘ro va ul lafzedur: uch harfi mutaharrik va to‘rtunchi harfi sokin, andoqkim, mirakim va yurakim. Va fosilai kubro va ul lafzedur: to‘rt harfi mutaharrik va beshinchchi harfi sokindur, andoqkim, yashamag‘an va kisamag‘an.

Va bu arkonning majmui bu kalimot tarkibida darajadurkim: «Ul ko‘zi qaro dardu g‘amidin chidamadim».

Va mavzun kalom ta’lif bu arkonning hech qaysini to yana birig‘a murakkab qilmag‘aylar, mustahsan tushmas. Ne sababdin, andoqkim,

b a y t:

*Ey oy, kelkim, yoringdurmen,
Furqat shomi zoringdurmen.*

Va ne avtoddin, andoqkim,

b a y t:

*Qadi havosidin gahi shajar sari nazar qilay,
Yuzi xayolidin gahi chaman sari guzar qilay.*

Va ne favosildin, andoqkim,

b a y t:

*Mirakim, tilakim chu sen o ‘ldungu bas,
Ne qilay yanalar ko‘rarni havas.*

Pas mavzun kalom ta’lifida bu arkon tarkibidin guzir yo‘qtur va arabu ajam shuaro sining jami’ ash’ori murakkab bu arkon ijtimoidindur va aruz ahli ani «afoiyl» va «tafoiyl» derlar va ul sekkiz faslg‘a munhasirdur:

- 1) Fa’ulun – vata duri majmu’ taqdimi bila sababi xafifqa.
- 2) Fo’ilun – sababi xafif taqdimi bila vata duri majmu’qa.
- 3) Mafo’iylun – vata duri majmu’ taqdimi bila ikki sababi xafifqa.
- 4) Mustafi’lun – ikki sababi xafif taqdimi bila vata duri majmu’qa.
- 5) Fo’ilotun – vata duri majmu’ kivurmak bila ikki sababi xafif orasig‘a.
- 6) Mafo’ilatun – vata duri majmu’ taqdimi bila fosilai sug‘rog‘a.
- 7) Mutafo’ilun – fosilai sug‘ro taqdimi bila vata duri majmu’g‘a.
- 8) Maf’ulotu – ikki sababi xafif taqdimi bila vata duri mafruqqa.

Va ulcha bu sekkiz usuldin forsiy she’rda kasirul-vuqu’dur – beshdur: 1) mafo’ilun, 2) va fo’ilotun, 3) va mustaf’ilun, 4) va maf’ulotu, 5) va fa’ulun. Va turkcha she’rda ham ulcha mulohaza qilibdurdur, bu arkondin o‘zga vuqu’ topmas, magar takalluf bila. Va bu besh aslning har biriga necha far’durkum

tag‘ayyurlar sababidinki, ani aruziyalar «zihof» derlar, hosil bo‘lur. Ul jihatdin zihof va furu’ orasida bir fasl tartib berildi.

Fasl. Mafo’iylun zihofoti o‘n birdir va furui dag‘i o‘n birdur. Ammo zihofi: 1) «Qabz» – mafo’iylun «yo»sining isqotidur, to mafo’ilun qolg‘ay. 2) «Qaf» – mafo’iylun «nun»uning isqotidur, to ma-fo’iyu qolg‘ay. 3) «Xarm» mafo’iylun «mim»ining isqotidur, to fo’iylun qolg‘ay va maf’ulun aning o‘rnig‘a bitarlar. 4) «Xarb» – mafo’iylun «mim»i va «nun»ining isqotidur, to fo’iylu qolg‘ay va maf’ulu aning o‘rnig‘a bitarlar. 5) «Shatar» – mafo’iylun «mim» va «yo»sining isqotidur, to fo’ilun qolg‘ay. 6) «Hafz» – mafo’iylunning oxir juzvining oxir sababi xafifi isqotidur, bas mafo’iylundin mafo’iy qolg‘ay va fa’ulun aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 7) «Qasr» – oxir juzvining, ya’ni sababi xafif oxirining isqotidur va maqobilining iskonni bas mafo’iylun mafo’iy bo‘lg‘ay. 8) «Hatr» – «hazf» va «qasr» ijtimoi, bas mafo’iylunda mafo’ qolg‘ay va fa’ul aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 9) «Jabb» – ikki sababi xafif isqotidur, bas mafo’iylundin mafo’ qolg‘ay va fa’ul aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 10) «Zalal» – «hatr» va «xarm» ijtimoidur, mafo’iylunda bas fo’ qolg‘ay.¹¹⁾ 11) «Batar» – «jabb» va «xarm» ijtimoidur, mafo’iylunda bas fo’ qolg‘ay, fa’ aning o‘rnig‘a qo‘yarlar.

Ammo furu’i: mafo’ilun – maqbuz; mafo’iyu – maxfuf; mafa’ulun – axram; mafa’ulu – axrab; fo’ilun – ashtar; fa’ulun – mahzuf; mafo’iy – maqsur; aul – ahtam; faul – majbub; fo’-asall; fa’-abtar.

Fo’ilotun zihofoti o‘ndur va furu’i o‘n besh. Ammo zihofoti: 1) «Habn» – avval juzvning sababi xafifining sokin harfining isqotidur, bas fo’ilotundin fa’ilotun qolg‘ay. 2) «Kaf» – beshinchchi harf isqotidur, bas fo’ilotun fo’ilon bo‘lg‘ay. 3) «Shakl» – «habn» va «kaf» ijtimoidur, bas fo’ilotun fa’ilotu bo‘lg‘ay. 4) «Hazf» – fo’ilotunda «to» va «nun» isqotidur – fo’ilo bo‘lur va fo’ilun aning o‘rnig‘a bitirlar. 5) «Qasr» – fo’ilotunda fo’ilot bo‘lur va fo’ilon aning o‘rnig‘a qo‘yarlar va ba’zi hamul «to»g‘a tag‘yir bermay mazkur qilurlar. 6) «Qat’» – fo’ilotunda so‘ngg‘i sabab isqotidur va vatad sokinining ham isqoti va moqabli iskonni, bas fo’il qolgay va fa’lun aning o‘rnig‘a qo‘yarlar, ammo ba’zi ani salm debdurlar. 7) «Tash’is» – fo’ilotun vatadining ikki mutaharrikidin birining neqotidur, to fo’otun qolg‘ay, yo folotun qolg‘ay, har taqdir bila maf’ulun aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 8) «Jahf» – fo’ilotunni xabn qilmoqdur va fosilani isqot qilmoq, tun qolg‘ay, fa’ aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 9) «Tasbig’» – oxir juzvning sababi xafifig‘a bir harf orturmoqdurkim, fo’ilotun fo’iloton bo‘lg‘ay, fo’iliyon aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 10) «Rab’» – fo’ilotunda qat’ va habn ijtimoidurkim, faul qolg‘an.

Ammo furu’i: failotun – maxbun; fo’latun – makfur; fa’ilotu – mashkul; fo’ilun – mahzuf; failun – maxbuni maqsur; fo’ilun – maxbunn mahzuf; fa’lun – maqtu; maf’ulun – musha’as; fa’loi – maqtui musabba’; faul – marbu’; foiliyon – musabbag‘; faliyon – maxbuni musabbag‘; fo’ – majhufi musabbag‘; fa’ – majhuf.

Va mustaf’ilun zihofoti to‘qquzdur va furu’i o‘n to‘rt. Ammo zihofoti: 1) «Xabn» – mustaf’ilunda mutaf’ilun bo‘lur, mafo’ilun aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 2) «Tay» – mustaf’ilunning to‘rtunchi harfining isqotidur, musta’ilun qolur, mufta’ilun aning o‘rniga qo‘yarlar. 3) «Qat’» – mustaf’ilunning «nun»ining isqotidur va «lom»ining iskonni, mustaf’il qolur, maf’ulun aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 4) «Taxli’» – mus-tafi’lunda «xabn» va «qat’» ijtimoidur, mutaf’il qolur, fa’ulun aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 5) «Hazaj» – mustaf’ilunning vatadi isqotidur, mustaf qolur, fa’lun aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 6) «Raf’» – bir sababi; xafif isqotidur, ul juzdinkim, avvali ikki sababi xafifdur, bas mustaf’ilundin taf’ilun qolg‘ay, foilun aning o‘rnig‘a qo‘yarlar. 7) «Xabl» – mustaf’ilundin «sin» va «fo» isqotidur, ya’ni

¹¹⁾ Xoja Ismat Buxoriy (vaf. 1437) – Buxoroda yashab ijod qilgan shoir. Xalil Sulton saroyida xizmat qilgan. Xalil Sulton zindonband etilgandan so‘ng u sargardonlikka uchraydi. Ulug‘bek taxtga o‘tirgach, Ismat Buxoriyni saroya taklif etadi. Lekin shoir taklifni qabul qilmaydi, u uzlatni, darveshlar orasida bo‘lishni afzal ko‘radi. Ismat Buxoriyning 8000 ming baytdan iborat she’rlar devoni, «Ibrohim Adham» nomli masnaviysi mavjud. Shoirning tasavvufiy fikrlar, so‘fiyona his-tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan she’rlari xalq orasida mashhur bo‘lgan. Shoirning devonida Ulug‘bekka (13), Xalil Sultonga (40) va Temuriy shahzodalarga bag‘ishlangan jam‘i 75qasida, 466 g‘azal, muxammas, qit‘a va boshqa shakllardagi she’rlari mavjud. Bu devon 1987 yilda Tehronda nashr qilindi. Unga Ahmad Karamiy «Zabardast olim va porso orif» nomli (6,5 sah.) so‘zboshi yozgan. So‘zboshida ta’kidlanishicha, iffoniy jihatdan Ismat Buxoriy she’rlari Hofizga va raxonlikda Sa’diyga o‘xshaydi. Shoir «Ismat», «Ismatulloh», «Nasiriy» taxalluslarida yozgan va oxirisini unga Xalil Sulton tavsiya etgan ekan.

«xabn» va «tay» ijtimoidur, muta'ilun qolur, fa'ilatun aning o'rnig'a qo'yarlar. 8) «Izola» – mustaf'ilunning oxiridag'i vatadi majmu'g'a bir sokin ortturmoqdur, mustaf'ilon bo'lur. 9) «Tarfil» – mustaf'ilunning vatadi majmu'ig'a bir sababi xafif izofa qilmoqdur, mustaf'ilotun bo'lur, mustaf'ilotun aning o'rnig'a qo'yarlar.

Ammo aning furu'i: mafoilun – maxbun; muftailun-matviy; maf'ulun – maqtu'; faulun – muxalla; fa'ilun – mahzuz; foilun – marfu'; failatun – maxbul; mafoilon – vatviyi muzol; mustaf'ilen – muzol; failaton – maxbuni muzol; mafoilotun – maxbuni muraffal; muftailotun – matviyi muraffal; musta'ilotun – muraffal.

Maf'ulotu zihofoti to'qquzdur va furu'i o'n to'rt. Ammo zihofoti: 1) «Xabn» – maf'ulotuda maf'ulotu bo'lur va mafo'ilu aning o'rnig'a qo'yarlar. 2) «Tay» – maf'ulotuda maf'ilotu bo'lur, foilotu aning o'rnig'a qo'yarlar. 3) «Xabl» – maf'ulotuda «xabn» va «tay» ijtimoidur, ma'ilotu bo'lur, failotu aning o'rnig'a qo'yarlar. 4) «Vaqf» – maf'ulotu «to»sining iskonidur, maf'ulon aning o'rnig'a qo'yarlar. 5) «Kashf» – maf'ulotu «to»sining isqotidur, maf'ulun aning o'rnig'a qo'yarlar. 6) «Salm» – maf'ulotu vatadining isqotidur – maf'u qolur, fa'lun aning o'rnig'a qo'yarlar. 7) «Jad» – maf'ulotuning, ikkala sababining isqoti va «to»sining iskonidur – lot qolur, fo' aning o'rniga qo'yarlar. 8) «Nahr» – maf'ulotuning ikkala sababi va «to»sining isqotidur – lo qolur, fa' aning o'rniga qo'yarlar. 9) «Raf» – maf'ulotuning burunqi sababining isqotidur, ulotu qolur, maf'ulu aning o'rnig'a qo'yarlar.

Ammo aning furu'i; mafoiyu – maxbun; foilotu – matviy; failotu – maxbul; maf'ulon – mavquf; maf'ulun – makshuf; faulun – maxbuni maqshuf; faulon – maxbuni mavquf; fa'lun – aslam; foilon – matviyi mavquf; foilun – matviyi, makshuf; failun – maxbuni matviyi makshuf; maf'ulu – marfu'; fo' – majdu'; fa' – manjur.

Va faulunning zihofoti oltidurur, furu'i ham olti. Ammo zihofoti: 1) «Qabz» – faulunda faulu bo'lur, «lom» zammi birla. 2) «Qasr» – faulunda faul bo'lur, «lom» sukuni bila. 3) «Hazf» – faulunda fau bo'lur, faul aning o'rnig'a qo'yarlar. 4) «Salm» – faulunda «fo» isqotidur, ulun qolur; fa'lun aning o'rnig'a qo'yarlar. 5) «Sarm» – : faulunda «fo» va «nun» isqotidur, ulu qolur, fa'lu aning o'rnig'a qo'yarlar. 6) «Batar» – faulunda vatadi majmu' isqotidur, lun qolur, fa' aning o'rnig'a qo'yarlar. Ammo aning furu'i: faulu – maqbuz; faulu – maqsur; faul – mahzuf; fa'lun – aslam; fa'lu – asram; fa' – abtar.

Fasl. Chun avzon va ba'zi zihofot furu'ikim, muhtojun ilayh edi, bilindi. Emidi bilkim, buhereki ba'zining takrori va ba'zining tarkibi ba'zi bila hosil bo'lur, o'n to'qquzdur, ba'zi arabqa maxsus va ba'zi ajamqa maxsus va ba'zi mushtarak va turk shuarosig'a millati isti'moldin hech qaysi bu vaqtqa deginchay maxsus emas ermissiz va muloyim tab'lig' nozimlar har bahr va vaznda kayfa mattafaq nazm aytur ermissilar va aruz qoida va zobitasidin bevuquf ermissilar, to bu vaqtida Tengri inoyatidin turk tili bila she'r ajam shuarosig'a maxsus buhur va avzon dag'i nazm silkig'a kirdi.

Ammo buhur asomisi: tavil, madid, basit, vofir, komil, hajaz, rajaz, ramal, munsarih, muzori', muqtazab, mujtass, sari', jadid, qariyb, xafif, mushokil, mutaqorib, mutadorik.

Ammo tavil va madid va basit binosi ikki muxtalif juzvg'adur, biri xumosiy va biri suboiy.

Tavil ajzosi ikki qatla: «faulun mafoiyun (faulun mafoiyun)»dur, andoqkim

b a y t:

*Desam orazu zulfung ul o'tdur, tutundur bu,
Der ondin sanga kuymak, bu birdur qaro qayg'u.*

«Fo'ilotun fo'ilun»dur, andoqkim,

b a y t:

*Chehradin burqa' ochib o'tqa kuydurdung mani,
Chun kul o'ldi paykarim, ko'kka sovurdung mani.*

Va basit ajzosi ikki qatla: «mustaf’ilun fo’ilun mustaf’ilun fo’ilun»dur, andoqkim,

b a y t:

*Ishqing meni tunu kun majnunu zor aylamish,
Ko ‘nglumni zoru hazin, jismim nizor aylamish.*

Vofir va komil binosi subonyotg‘adur: murakkab besh mutaharrik va ikki sokindin. Vofir ajzosi musaddasda olti qatla «mafoilatun», andoqkim,

b a y t:

*Na furqat erur sensizin o ‘rtanur yurakim,
Ne bo ‘lg‘ay agar manga guzar aylasang, mirakim.*

Va komil ajzosi ham musaddasda olti qatla «mutafo’ilun»dur, andoqkim,

b a y t:

*Ne balo emish sening ul xirom ila qomatiig,
Gahi sur’ating, gahi noz birla iqomating.*


Va ajam shuarosig‘a bu besh bihordakim, mazkur bo‘ldi, nazm oz voqe’ bo‘lmish bo‘lg‘ay.

Ammo hajaz va rajaz va ramal binosi tavil va madid va basitning suboiiyotig‘adur. Hazaji musammani solimda sekkiz qatla «mafo’iylun»dur, va rajaz ajzosi sakkiz qatla «mustaf’ilun»dur va ramal ajzosi sakkiz qatla «fo’ilotun»dur. Va bu bahrni bir doirag‘a qo‘yubdurlar va ul doirani «Mu’talifa» debdurlar. Va ul bu surat bila durur:




Munsarih va muzori’ va muqtazab va mujtass va sari’ va jadid va qariyb va xafif va mushokil


binosi suboiyotqadurki, anda ixtilofdur, salimlarin bir doirada jam' qilmaydurlar. Ammo munsarihi matviy va muzori'i matviy va makfuf va muqtazabi matviy va mujtassi makfuf va maxbunni, musammanul-ajzodurlar, bir doirag'a qo'yub, ul doirani «Muxtalifa» debdurlar. Bu surat biladur:



Va sari'i matviy va jadidi maxbun va maqbuz va qariybi makfuf va matviy va xafifi difis maxbun va maqbuz va mushokili makfufu maqsurki musaddasul-ajzodurlar, bir doirag'a qo'yub, ul doirani «Mun-tazia» atabdurlar. Bu surat biladur:




Va mutaqorib va mutadorik ajzosi xulosiyotqadurki, murakkab uch mutaharrik va ikki sokindindurlar. Mutaqorib ajzosi sekkiz qatla «fa'o'lun» va mutadorik ajzosi sekkiz qatla «fa'ilun» va bu ikki bahrni bir doirada qo'yub, otin «Muttafiqa» debdurlar. Bu surat biladur:




Agar munsarih va muzori' va muqtazab va mujtass baxrig'a zihofot yo'l berib, musamman qilib, bir doira qo'yubdurlar va sari' va jadid va qariyb va xafif va mushokil bahrig'a dag'i zihofot doxil qilib, yana bir doira qo'yubdurlar. Ammo bularning soliminiki, anga hech zihof kirmamish bo'lg'ay, hech doiraga tartib bila zabit qilmaydurlar.


Bu mazkur bo‘lg‘an to‘qquz asl bahrning soliminiki, zihofot duxulidin salomat qolmish bo‘lg‘aylar, bir doirai azimada jam’ qilib, har birining o‘rnig‘a alohida misol kelturub, to‘qqutzasini yana bir misra’din ham istixroj qilib, ul «Doirai mujtamia» deyildi va bu doira rasmi zamон zurafosidin ba’zining xayoliga kelib erdi, ammo faqir anga tartib berdim va ul bu nav’ surat biladur, hokazo:



Va komil bahri bila vofir bahrida chun nazm kam voqi’ bo‘lubdur, agar solim va matbu’ bahrlardur, ammo doirasig‘a oz ta’arruz qilibdurlar, ul ikki bahrg‘a dag‘i doira qo‘yuldi va aning otin «Doirai muxtalita» deyildi, bu surat biladur:



Ammo tavil va madid va basit bahri arab shuarosining maxsusidur, alar aruzlarida doirag'a kiyurubdurlar va ajam shuarosi anga mashg'ul bo'lmaydurlar, alarni dag'i bir doirag'a kiyurub, bu muxtasarg'a doxil qilildikim, ul doiradin oriy bo'lmag'ay va ani «Doirai mushtabiqa» debdurlar, bu surat biladur:



Fasl. She'r taqt'i iborat andindurkim, bayt alfozini bir-biridin ayirg'aylar, ul nav'kim, baytning har miqdori teng tushgay ul bihorning afo'iylidin birigakim, ul bayt bahrda voqi'dur va tariqi budurkim, mulohaza harakatning nafsig'a voqi' bo'lg'ay, yo'qkim, ahvolig'aki, ul fatha va zamma va kasradur va malfuz e'tibor qilg'ay, yo'qliki maktub va har harfki lafzda kelgay, agarchi kitobatda bo'limg'ay, taqt'i da hisobg'a kirgay, nechukkim, mushaddad huruf va «alif»dekki, «hamza» ishbo'edin hosil bo'lur, andoqkim,

m i s r a ':

Ketti ulkim, sendin orom istagayman, ey ko 'ngul.

Taqti'i: Ketti ulkim – foilotun – sendin orom – foilotun – istagaymen, foilotun – ey ko'ngul – foilun – kim mulohaza qililsa bu misra'da o'n to'rt harfi taqt'i qilurda xorij bo'lur. Va ul «yo»larkim, xastae va bastae va yorae va ovorae va yonae lafzidek tankir va sifat holida zohir bo'lur, taqt'i chog'i doxil qilurlar, andoqkim,

b a y t:

*Xastaekim, bastai ul zulf erur,
Uyla yo 'q devonai farzonae.*

Taqti'i: Xastaekim foilotun – bastai ul – foilotun zulf – erur – foilun. Uyla yo'q de – foilotun – vonai far – foilotun – zonai – foilun.

Ammo ulcha kitobatda bordur va lafzda yo'qtur – «atfi voviy»dek misli: jonus jahon va zammai layoniyi voviydek, misli: bu va yu va zammai ishboiyi voviydek, misli: xobu xo'rd; andoqli, bu misol ucha-lasiga shomildur,

m i s r a ':

Xo 'rdu xobim bu dabiston olmish.

Hamul o'tgan dastur bila taqt'i qililur. Yana «ho» harfiki, talaffuzga kirmaski: vajh va xora va yoradek, agar bayt o'rtasida voqi' bo'lsa, taqt'i din soqit bo'lur va agar bayt oxirida tushsa, sokin harf hisobig'a kirar, andoqkim,

sh ye ' r:

*Chunki ul yuz gule erur toza,
Toza gulga ne hojat g'ozza.*

Yana «nun» harfidur, har «nun»ki, «vov» va «alif» va «yo»din so'ngra voqi' bo'lsaki, moqabl harakati alarning o'z jinsidin bo'lsa, agar bayt o'rtasida tushsa va anga harakat oriz bo'lsa, taqt'i din soqit bo'lur, andoqkim,

m i s r a ':

Jonon mani mahzung'a qilurkim pinhon.

Yana «to» harfidur. Har «to»ki andin burun bir sokin harf bo'lg'ay «mast», «alast»dek, chun bayt o'rtasida bo'lsa, bir mutaharrikka mahsubdur va agar bayt oxirida tushsa, bir sokin hisobig'a kirar, andoqli,

m i s r a ':

La 'ling mayidin erur ko 'ngul masti alast.

Yana har sokin harfikim, yana bir sokindin so‘ngra voqi’ bo‘lsa, andoqkim,

*m i s r a ‘:
Yana yor ayladi bedode bunyod.*

Va har «to»ki yana andin burun ikki sokin bo‘lgay, agar bayt o‘rtasida tushsa va talaffuzg‘a kirsa, o‘z moqabli bila, har biri bir mutaharrik hisobig‘a kirarlar, andoqkim,

*m i s r a ‘:
G ‘am yukidin ko ‘ngulda ko ‘ftidurur.*

Va agar baytning oxirida tushsa, har hol bila taqtı’da soqit bo‘lur, nevchunkim, aruz avzonida uch sokin hech vajh bila jam’ bo‘lmas, andoqkim,

*m i s r a ‘:
Jahon bo ‘lmasun do ‘st gar bo ‘lmasa do ‘st.*

Va ham bu nav’dur «bo» harfi Gashtosb bila Lo‘hrosbda.

Va yana «alif»dur, har mutaharrik «alif»kim, aning harakatin muqbilig‘a naql qilsalar, taqtı’(da) soqit bo‘lur, andoqkim,

*m i s r a ‘:
Man agar yordin ayrilmasam ermasdur tong.*

Yana «yo» harfidur, chun «yo» harfidan so‘ngra mutaharrik «alif»kim, mashqda bo‘lg‘ay, chun talaffuzg‘a kirmagay, taqtı’din soqit bo‘lg‘ay, andoqkim,

*m i s r a ‘:
Bordi ul sho ‘xu ketti ish mendin.*

Va yana aksar malfuz harfiniki, g‘ayri maktubdur va maktub harfiniki, g‘ayri malfuzdur, bu mazkur bo‘lg‘an hurufg‘a munhasir bilmagaylar.

Yana turkcha alfozdurkim, anda «alif» va «vov» va «yo» «fatha» va «zamma» va «kasra» harakati o‘rnig‘a bitilurki, bu hech mahalda harf hisobig‘a kirmas, balki harakat o‘rnigadurur, magar ba’zi yerdakim, baytning oxirida tushgan va ani zaruratdin qofiya qilmish bo‘lg‘aylar, andoqkim,

*b a y t:
Belingu zulfung xayolin sharh etarmen mo ‘-bamo’,
Tashnadurmen la ‘linga to bordurur jonimda suv.*

Yana ortuksi «nun»lardurkim, so‘z irtiboti uchun: zamoyirda «ning» lafzida bitilur, misli «oning» va «mening» va «sening» lafzida, andoqkim,

*b a y t:
Ey ko ‘ngul, bilgilki bu jon ne seningdur ne mening,
Balki oningdur desang kimning deyinkim yorning.*

Va bu mazkur bo‘lg‘on alfozning «kof»laridurkim, «kof» o‘rnig‘a bitilur, ammo talaffuzga «kof» o‘rnig‘a kirmas. Va yana «nun» bila «kof»lardurkim oning va mening va tong va o‘ng va so‘ng va nang va tang lafzida voqi’durkim, barchasi taqtıda soqit bo‘lur.

Chun mu muqaddimot bayonig‘a kirdi, ammo bilmak kerakkim, bu sanoat arbobi avvalg‘i misra’ning burunqi juzvin «sadr» derlar, so‘ngg‘i juzvin «aruz» derlar va so‘ngg‘i misraning burunqi juzvin «ibrido» derlar va so‘ngg‘i juzvin «zarb». Va ulcha «sadr» va «aruz» va «ibrido» va «zarb» orasidadur, ani «hashv» derlar va har baytki, aning taqtıda zihofe voqi’ bo‘lmaydur, oni «solim» derlar.

Endi har birining solimin va yo zihofikim, anga kirib, ani solimlig‘idin chiqoribdurki, andin ba’zi matbu’ tushubdur va ba’zi nomatbu’ tartib bila ado qililur.

Chun hajaz va rajaz va ramal bahri burunqi doirag‘a kirdikim, «mu’talifa»ga tasmiya topti va burunroq hazaj mazkur bo‘ldi, andin ibtdo qililur.

(HAZAJ BAHRI)

(Hazaji musamman)

Hazaji musammani solim ul-arkon

*Zihi mulkungning o‘n sekiz mingidin bir kelib olam,
Bu olam ichra bir uyluk qulung Havvo bilan Odam.
Mafo ’iylun mafo ’iylun mafo ’iylun mafo ’iylun*

Hazaji musammani musabbag‘

*Mayi la ’lingg‘a go ‘yokim, hayoti jon erur mamzuj-
Ki, ul ermas-zuloli chashmai hayvon erur mamzuj.
Mafo ’iylun mafo ’iylun mafo ’iylun, mafo ’iylun*

Hazaji musammani mahzuf

*Zihi qadding niholi butub jon gulshani din,
Yuzung mehri ko ‘ngulga kirib ko ‘z ravzanidin.
Mafo ’iylun mafo ’iylun mafo ’iylun mafo ’iylun*

Hazaji musammani axrab

*To ko ‘z bila ko ‘nglumni ul g‘amza maqom etmish,
Qonimni halol aylab, uyqumni harom etmish.
Maf’ulu mafo ’iylun maf’ulu mafo ’iylun*

Hazaji musammani makfufi maqsur

*Zihi qaddu yuzung ko ‘rsa uyotlig‘ pariyu hur,
Desam sarvu gul ermas, bu muhiqmen dog‘i ma ‘zur.
Mafo ’iyu mafo ’iyu mafo ’iyu mafoiy*

Hazaji musammani axrabi makfufi maqsur

*Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod,
Bulbul kibi hajringda ishim nolau faryod.
Maf'ulu mafo 'iyulu mafo 'iyulu mafo 'iyul*

Hazaji musammani makfufi mahzuf

*Ko 'zungdek qoni nargis, yuzungdek qoni gulshan?
Engingdek qoni nasrin, qadingdek qoni savsan?
Mafo 'iyulu faulun mafo 'iyulu faulun*

Hazaji musammani makfufi maqsur aruz va zarb

*Jamolingga 'a necha boqsam erur husning fuzunroq,
Xayolingga 'a necha tushsam bo 'lur fitkrim uzunroq.
Mafo 'iyulun mafo 'iyulun mafo 'iyulun mafoiyil*

Hazaji musammani axrabi makfuf

*Ortar manga hayrat gar oning husnig 'a ko 'z solsam,
O 'rtar mani g 'ayrat gar o 'rtar chog 'da boqib qolsam.
Maf'ulu mafoiylu mafoiylu mafoiylyn*

Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf

*Ishq ichra qoni men kibi zeru zabar o 'lg 'on?
Har kimki yo 'q andin batar o 'lg 'on, batar o 'lg 'on.
Maf'ulu mafo 'iyulu mafo 'iyli mafulun*

Hazaji musammani ashtari mahzuf

*Ey xating muanbar, vey qading sanubar,
Rahm qilki, bo 'ldum furqatingdin abtar.
Foilun faulun foilun faulun*

(HAZAJI MUSADDAS)

Hazaji musaddasi solim

*Zih i ruxsoring olida quyosh tiyra,
Quyoshdin yo 'qli ondin el ko 'zi xiyra.
Mafo 'iyulun mafo 'iyulun mafo 'iyulun*

Hazaji musaddasi maqsuri aruz va zarb

*Unutmog‘ilki, to hajr etdi bedod,
Mani bir noma birla qilmading yod.
Mafo ’iylun mafo ’iylun mafo ’iyl*

Hazaji musaddasi mahzufi aruz va zARB

*Iki ko ‘z manziling, ey moh mahmil,
Ko ‘ngulga azm qil manzil-bamanzil.
Mafo ’iylun mafo ’iylun faulun*

Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi sadR va hashv

*Bog ‘ichra chu garm bo ‘ldi bozoring,
Yuz najh ila bo ‘ldi gul xaridoring.
Maf’ulu mafo ’iylun mafo ’iylun*

Hazaji musaddasi axrabi makfufi sadR va hashv

*Ey husin jahon ichra balo solg ‘on,
Qatl etgali xalq uzra salo solgon.
Maf’ulu mafo ’iylu mafo ’iylun*

Hazaji musaddasi axrabi makfufi mahzuf

*Gar qad budur, ey sarvi sumanbar,
Tubiy sanga bir bandai chokar.
Maf’ulu mafo ’iylu faulun*

Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur

*Ey la ‘li labing uchun fido jon,
Qolmish ul iki labing aro jon.
Maf’ulu mafo ’iylun mafo ’iyl*

Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf

*Sansiz manga umru jon kerakmas,
Hajring aro xonu jon kerakmas.
Maf’ulu mafo ’iylun faulun*

Hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf

*Ruxsoring gul kibi ochilmish,
Ashkim ham joladek sochilmish.
Maf’ulun fo ‘ilun faulun*

Hazaji musaddasi axrami ashtari solimi aruz va zARB

*Kelgilkim, hajr aro hazindurman,
Ishqingdin g‘amg‘a hamnishindurman.
Maf’ulun fo’ilun mafo’iylyn.*

(HAZAJI MURABBA’)

Hazaji murabba’ arab shuarosi da’bidur:

*Sanga ul turrai hindu,
Manga solmish qaro qayg‘u.
Mafo’iylyn mafo’iylyn
Mafoiylyn mafoiylyn.*

Axram zihofotining amsoli (va) axrab zihofotining amsoli.

Ruboiy vaznikim, ani «du baytiy» va «tarona» ham derlar, hazaj bahriniig «axram» va «axrab»idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xush oyanda va nazmedur bag‘oyat raboyanda. She’r avzonidin ushbu vazndurkim, nazm ustodlari anga hadde muayyan qilibdurlar va g‘oyat latofatidin ikki baytg‘a ixtisor qilibdurlar va ul yigirma to‘rt nav’ kelibdur va majmu’i ikki qismg‘a muxtasardur.

Biri ulki, avvalqi juzvi «maf’ulun» bo‘lg‘ayki, hazaj bir juzvini «xarm» qilibdurlar va ani «axram» derlar. Va bu o‘n ikki nav’ kelur.

Yana biri ulki, avvalqi juzvi «maf’ulu» bo‘lg‘ayki, hazajning biz juzvin «xarb» qilibdurlar va ani «axrab» derlar. Bu ham o‘n ikki nav’ kelur. Ammo –

Hazaji axram

*Yo rab, ne ofatdur ul husnu jamol-
Kim yo ‘qtur yer ila jahon ichra misol.
Maf’ulun maf’ulun maf’ulu faul
Maf’ulun maf’ulu mafoiylu faul*

*Ming qatla shukrin desam oz erur,
Gar bo‘lsa bir zamon manga komi visol.
Maf’ulun maf’ulun maf’ulu faul
Maf’ulun fo’ilun mafo’iylu faul*

*Ey sensiz umrumdin osoyish yo‘q,
Ko‘z istarkim, ko‘rsa jamoling to‘q.
Maf’ulun maf’ulun maf’ulun fo’
Maf’ulun maf’ulu mafo’iylyn fo’*

*Kelgilki, bir qatla uzoringni ko‘ray-
Kim hajring ko‘p urdi bu ko‘kusmga o‘q.
Maf’ulun maf’ulu mafo’iylu faul
Maf’ulun fo’ilun mafo’iylyn fo’*


*Ey mahvash, o‘tkay bu sarkashlik ham,
Rahm aylab bu qulq‘a jafoni qil kam.*

Maf'ulun maf'ulun maf'ulun fa'
Maf'ulun maf'ulu mafo 'iylyn fa'

*To Tengri asrag 'ay xaloyiqqa seni,
Aylarmen yuz duo sening sori dam.
Maf'ulun fa 'ulun mafo 'iylu faul
Maf'ulun fo 'ilun mafo 'iylyn fa'*

Hajaz bahrida «ahram» zihofotida o'tgan uch ruboiykim, har misra' o'zga vaznda erdikim, o'n ikki vazn bo'lur, bu shajarada jam'dur.

AXRAM ShAJARASI



Ammo – Hazaji axrab

*Ey sandin o 'lub bag 'rim ham ko 'ksum dog',
Ko 'nglum o 'tu ul o 'tqa to 'kub ashkim yog'.*

Maf'ulu mafo 'iylyn maf'ulun fo'
Maf'ulu mafo 'iylu mafo 'iylyn fo'

*Tan o 'lsa g'aming ichra joningg 'a fido,
Jon kuysa muhabbattingda sen bo 'lg'il sog'.*

*Maf'ulu mafo 'iylyn maf'ulu faul
Maf'ulu mafo 'iylyn mafo 'iylyn fo'*

* * *

*Bir lahza ko 'ngul sensiz holin bilmas,
Javringni ko 'ngulga, ey parivash, qil bas.
Maf'ulu mafo 'iylyn maf'ulun fa'
Maf'ulu mafo 'iylyn mafo 'iylyn fa'*

*Hajringda fig 'onimg 'a ulus nola qilur,
Qil holima rahmkim, erurman bekas.*


* * *

*Ey sho 'x, bizning sori bir ayla nazar-
Kim ohu fig 'on o 'ti chekar ko 'kka sharar,
Fa 'ulu mafo 'ilun maf'ulu faul
Maf'ulu mafo 'iylyn mafo 'iylyu faul*

*Yo vasl ila ko 'nglumga qarin ayla murod,
Yo qatl ila qo 'yma bu hayotimg 'a asar.
Maf'ulu mafoilun mafo 'iylu faul
Maf'ulu mafo 'iylu mafo 'iylu faul*

«Hazaj» bahrida «ahrab» zihofotida o‘tgan, yana uch ruboiykim, har misra’ o‘zga vaznda erdiki, bu ham o‘n ikki vazn bo‘lur, bu shajarada jam’dur.

AXRAB ShAJARASI



Burunqi doiraning ikkinchi bahrn rajaz bahridurur, bu durur.

(RAJAZ BAHRI)

Rajazi musamman

Rajazi musammani solim

*Vayronaedur maskanim, andin manga bisyor g'am,
Ohim bila eshikda o't, ashkim bilan devor nam.*

Mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun

Rajazi musammani matviyi maxbun

*Kel beri, ey rashki qamar, la'li labing tungi shakar,
Furqating o'tida ko 'ngul chekti sipehr uzra sharar.
Muftailun muftailun muftailun muftailun*

Rajazi musammani matviyi maxbun

*Gar alamimg'a chora yo 'q, bo 'lmasa bo 'lmasun netay,
Vah, g'amima shumora yo 'q, bo 'lmasa bo 'lmasun netay.
Muftailun mufo 'ilun muftailun mafo 'ilun*

Rajazi musammani maxbuni matviy

*Manga ko 'ngul hajring aro zordur, ey rashki pari,
Yuzungni ko 'rguzgilu, ayla g'ussadin jonin bari.
Mafo 'ilun muftailun mafo 'ilun muftailun*

Rajazi musammani maxbuni maqtu'

*Tengri uchun qayda eding rost de, ey sarvi sihi,
Furqating o'tidin manga rioyer ayla gah-gahi.
Mustaf'ilun mustaf'ilun mafo 'ilun maf'ulun*

Rajazi musammani matviyi maxbuni maqtu'

*Sarv nechuk deyin seniki, yo 'q anga gulrang yuz,
Naxl nechuk deyin seniki, yo 'q anga shirin so 'z.
Muftailun mafo 'ilun muftailun maf'ulun*

(RAJAZI MUSADDAS)

Rajazi musaddasi solim

*Hajringda, ey gulchehra, behad zorman,
Qon ichra g'arqa gul kibi afgorman.
Mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun*

Rajazi musaddasi maqtu'

*Ey ishqing ichra odatim mahzunluq,
Hajringda da'bu siyratim majnunluq.
Mustaf'ilun mustaf'ilun maf'ulun*

Rajazi musaddasi matviyi muzol

*Kelki, firoqingda ko ‘ngul bo ‘ldi hazin,
Aylama muncha manga bedol ila kin.
Muftailun muftailun muftailon*

Rajazi musaddasi matviyi maqtu'

*Ko ‘rgali husnungni senga hayronmen,
Vodiyi hasrat aro sargardonmen.
Muftailun muftailun maf’ulun*

Rajazi musaddasi maxbun

*Yuzung qamar, qading shajar, labing shakar,
Manga bular xayolidin ne xobu xo ‘r.
Mafo ’ilun mafo ’ilun mafo ’ilun*

Rajazi musaddasi matviyi maxbun

*Vahki, yana furqating ichra tushmisham,
O ‘lgali bu furqat aro yovushmisham.
Muftailun muftailun muftailun*

(RAJAZI MURABBA')

Rajazi murabbai solim

*Sensiz ishim faryod erur,
O ‘z jonima bedod erur.
Mustaf’ilun mustaf’ilun
Mustaf’ilun mustaf’ilun*

Uchinchi bahri ramal bahridir.

(RAMAL BAHRI)

(Ramali musamman)

Ramali musammani solim

*Kelki, ishqingdin ko ‘ngulda yo ‘qturur sabru qarorim
Boshima yetkur qadamkim, haddin oshti intizoram.
Foilotun foilotun foilotun foilotun*

Ramali musammani maqsur (aruz va zARB)

*Vah, ne holatdurki, men har necha ko 'rguzsam niyozi,
Ey mahi badmehr, sandin zohir o 'lmas g 'ayri noz.
Foilotun foilotun foilotun foilon*

Ramali musammani mahzuf

*Qosidekim, yetkurur ko 'nglumga jonondin xabar,
Uyladurkim, bergay o 'lg 'on jismg 'a jondin xabar.
Foilotun foilotun foilotun foilun*

Ramali musammani maxbun

*Subhi davlat yuzung, en, tavsani gardun, sanga ashhab,
Tojing ustidagi dur uylaki, tong boshida kavkab.
Failotun, failotun failotun failotun*

Ramali musammani maxbuni maqsur

*Vahki, ul mug 'bacha har damki ichar bodai nob,
Qo 'zg 'alur arbadasidin bu ko 'han dayri xarob.
Failotun failotun failotun failun*

Ramali musammani maxbuni maqtu'

*Olam ichra manga ul huri malak siymo bas,
Bu qachon bo 'lsa tuyassar, qadahi sahbo bas.
Foilotun failotun failotun fa 'lun*

Ramali musammani mashkul

*Tilagim sening huzuring, talabim sening jamoling,
Necha kun tirikligimdin g 'arazim sening visoling.
Failotu foilotun failotu foilotun*

(RAMALI MUSADDAS)

Ramali musaddasi solim

*Ey jamolingdin xijil xurshidi anvar,
Qomatingdin munfail sarvu sanavbar.
Foilotun foilotun foilotun*

Ramali musaddasi maqsur

*Gulshaningdin yeldek, ey ra 'no nihol,
Men yomon bordim, vale sen yaxshi qol.
Foilotun foilotun foil'on*

Ramali musaddasi maxbuni maqsur

*Yana mug‘ dayrina kirdim sarmast,
May tut, ey mug‘bachai bodaparast.
Foilotun foilotun foil‘on*

Ramali musaddasi maxbuni mahzuf

*Kelki, hajringda hazinmen behad,
Ne menga sabr, na hushu ne xirad.
Foilotun foilotun failun*

(RAMALI MURABBA’)

Ramali murabbai solim

*Kelgil, ey ruxsori zebo-
Kim bo ‘lurmen noshikebo.
Foilotun foilotun
Foilotun foilotun*

Ramali murabbai maxbun

*Manga hajringdin alam ko ‘p,
Sanamo, kilma sitam ko ‘p.
Failotun failotun
Failotun failotun*

Munsarihning musammani solimidurki, doirag‘a doxil emas va Darvesh Mansurning «Aruz»ida musbatdur.

(MUNSARIH BAHRI)

Munsarihi musammani solim

*Ey orazing ko ‘nglum komi, la‘li labing jon oromi.
Vasling kunin yetgurgilki, jonim olur hajrnng shomi.
Musta‘ilun maf‘ulotu musta‘ilun maf‘ulot*

Ikkinchı doirakim, muayyan to‘rt bahrg‘a erdikim, g‘ayri solim erdilarkim, munsarih va muzori‘ va muqtazab va mujtassdur, munsarihi musammani matviyi mavqufdin bunyod qililur.

Munsarihi musammani matvini mavquf

Ohki, sensiz ishim oh ila faryod erur,

*Jonima, oshubu shayn, jismima bedod erur.
Muftailun foilon muftailun foilon*

Munsarihi musammani matviyi makshuf

*Vahki, yana o 't solur jonima bir hurvash,
Na'lbaru dog 'so 'z, rindvashu jur'akash.
Muftailun foilun muftailun foilun*

Munsarihi musammani matviyi makshufi maqtu'

*Ishq yana hajr ila jonima qildi sitam,
Furqatu hijron o 'ti boshima chekti alam.
Muftailun foilun muftailun foilun*

Munsarihi (musammani) maxbuni makshuf

*Gahi manga ul sanam qilur vafo va 'dasi,
Vafosidin zulmu kin vale fuzundur base,
Mafoilun foilun mafoilun foilun*

Munsarihi (musammani) matviyi majdu'

*Charx yana zulmu javr ayladi bunyod,
Qildi falak hodisoti jonima bedod.
Muftailun foilotu muftailun fo'*

Munsarihi (musammani) matviyi manhur

*Shukrki, dirlrabo yonib, yana mango keldi,
Maskani ayshimda vasl sham'i yoqildi.
Muftailun foilotu muftailun fa'*

Munsarihi (musammani) matviyi maqtui manhur

*Ko 'nglum istar sayr mayli gulshan sori,
Man nega ichmay birovki bo 'lg'ay yori.
Muftailun foilotu maf'ulun fa'*

(MUNSARIHI MUSADDAS)

(Munsarihi) musaddasi matviy

*Ishqi mani zor qildi olam aro,
Ayladi ovora xayli odam aro.
Muftailun foilotu muftailun*

(Munsarihi) musaddasi matviyi maqtu'

*Qo 'ydi g‘aming dardu dog‘ ko ‘nglumga,
Qo ‘ymadi nshqing farog‘ ko ‘nglumga.
Muftailun foilotu maf’ulun*

(MUNSARIHI MURABBA’)

Munsarihi murabbai matviyi mazquf

*Ayla vafo oshkor, kel beri, ey gul’uzor,
Muftailun foilon mutailun foilon*

Munsarihi murabbai matviyi maxbuni mavquf

*Kelki, sanga fido jon,
Vahki, fido sanga jon.
Muftailun faulon
Muftailun faulon*

Doiraning ikkinchi bahri muzori’ dur.

**(MUZORI’ BAHRI)
(Muzori’i musamman)**

(Muzori’i musammani) makfufi maqsur

*Manga, ey sumanbarim, jafo qilma behisob,
Yuzunga zamon chekib yopmag ‘il niqob.
Mafoiylu foilotu mafoiylu foilun*

Muzori’i musammani) makfufi mahzuf

*Yuzungdin xijil qamar, labingdin dog‘i shakar,
Manga har biridin o ‘t, sanga qilmay ul asar.
Mafoiylu foilun mafoiylu foilun*

(Muzori’i musammani) axrab

*Ishqu junun erurlar beixtiyor manda,
Mendurmanu bu ikki, o ‘zga ne bor manda.
Maf’ulu foilotun maf’ulu foilotun*

(Muzori’i musammani) axrabi musabbag‘

Men ishq eli gadosi, sen husn eliga sulton,

*Bo 'lmas gadog 'a hargiz sulton visoli imkon.
Maf'ulu foilotun maf'ulu foilotun*

(Muzori'i musammani) axrabi makfufi mahzuf

*Hayhotkim, birov g 'amidin zormen yana,
Faryodkim, balog 'a giriftormen yana.
Maf'ulu foilotu mafo 'iyulu foilun*

(Muzori'i musammani) axrabi makfufi maqsur

*Ul sho 'xdin manga gah erur nozu, gah itob,
Yo 'q anda ixtiyor, dog 'i menda ijtinob.
Maf'ulu foilotu mafoiyulu foilon*

(Muzori'i musammani) axrabi makfufi solim aruz va zARB

*Sendin manga tahammul emas bir zamon yirog 'liq,
Jon rishtasi erur chu sening sunbulingga 'a bog 'liq.
Maf'ulu foilotu mafoiyulu foilotun*

(Muzori'i musammani) axrabi mahzuf

*Ishqing ajab balodur, ey nozanin sanam,
Jon anda mubtalodur, ko 'rmas ba juz sitam
Maf'ulu foilotun maf'ulu foilun*

**(Muzori'i musaddas)
(Muzori'i) musaddasi makfufi maqsur**

*Seningdek jahonda kimsa ne imkon,
Buyon kel, qilay qoshingga fido jon.
Mafoiyulu foilotu mafoiyul*

(Muzori'i) musaddasi makfufi mahzuf

*Ko 'ngul bo 'lg 'an xayolingg 'a moyil,
Ko 'zum ham o 'ldi husningg 'a zoyil.
Mafoiyulu foilotu maf'ulun*

(Muzori'i) musaddasi axrabi makfuf

*Ishqingda oxu nola qilur ko 'nglum
Kim, qon yoshini jola qilur ko 'nglum.
Maf'ulu foilotu mafoiyulun*

(Muzori'i) musaddasi axrabi makfufi mahzuf

*Ey xotirim havosi qoshingg‘a,
Evrulgali hamisha boshingg‘a.
Maf’ulu foilotu faulun*

Doiraning uchunchisi muqtazab bahri erdi.

(MUQTAZAB BAHRI)
(Muqtazabi musamman)

Muqtazabi musammani matviy

*Ey nigori mahvashim, ey harifi jur’akashim,
Tut qadahki, behad erur ishq tobidin otashim.
Foilotu muftailun foilotu muftailun*

Muqtazabi musammani matviyi maqtu’

*Ey yigit, buyon kelki, shavqdin xarobingmen,
Bo ‘yni bog ‘lig ‘it yonglig ‘bastai tanobingmen.
Foilotu maf’ulun foilotu maf’ulun*

(MUQTAZABI MURABBA’)
Muqtazabi murabbai matvin

*Furqating yoshim oqizur.
Hasratnng qonim tomizur.
Foilotu muftailun*

(Muqtazabi) murabbai maqtu’

*Boda keltur, ey soqiy,
Qilma ayshni boqiy.
Foilotu maf’ulun
Foilotu maf’ulun*

Muqtazabi murabbai maxbuni matviy

*Jamolingda qoldi ko ‘zum,
G‘amingda uzoldi so ‘zum.
Mafoiylu muftailun
Mafoiylu muftailun*

(Muqtazabi) murabbai matviy

*Hasratinngda afsurdamen,
Furqatingda ozurdamen.*

*Foilotu mustaf'ilun
Foilotu mustaf'ilun*

Doiraning to‘rtinchi bahri mujtass bahri erdi.

**(MUJTASS BAHRI)
(Mujtassi musamman)**

Mujtassi musammani maxbun

*Yetishsa ishq aro yuz mehnatu balo, qadah ichgil,
Nafas-nafas quyubon may, to ‘lo-to ‘lo qadah ichgil.
Mafoilun foilotun mafoilun foilotun*

Mujtassi (musammani) maxbuni maqsur

*Ko ‘ngul haroratin anglati ohi dardolud,
Uy ichra o ‘t ekanin elga zohir aylar dud.
Mafoilun failotun mafoilun failon*

Mujtassi (musammani) maxbunn mahzuf

*Firoq isitmasi andoq tanimdin o ‘t chiqorur-
Ki, gar tabib iligim tutsa, bormog ‘i qoborur.
Mafoilun failotun mafoilun failun*

Mujtassi (musammani) maxbuni maqtu’

*Bizning sori ul sho ‘xi ishvagar kelmas,
Bilurki furqatidin o ‘lmisham, magar kelmas.
Mafoilun failotun mafoilun fa ‘lun*

Mujtassi (musammani) maxbuni musabbag‘

*Ul oy mening bila bemehr ekanin anglabmen,
Mani o ‘ziga vafosiz deganni anglabmen.
Mafoilun failotun mafoilun failon*

Mujtassi (musammani) maxbuni mahzufi musabba’

*Bizning sori kelmassen, ne bo ‘ldi, ey badmehr,
Vafo yo ‘lin bilmassen yopib niqob ila chehr.
Mafoilun maf’ulun mafoilun failon*

Mujtassi (musammani) maxbuni mahzufi musabba’

Agar ochilsa ul yuz niqobdin, vah,

*Qachon o 'zida qolg'ay gado bilan shah.
Mafoilun maf'ulun mafoilun fa'*

(MUJTASSI MURABBA')
Mujtassi murabbai maxbun

*Yuzung ko 'zumga keraktur,
Uzung o 'zumga keraktur.
Mafoilun failotun
Mafoilun failotun*

Mujtassi murabbai maxbuni maqsur

*G'aming mani qildi zor,
Yuzung manga bo 'ldi yor.
Mafoilun foilon
Mafoilun foilon*

Uchinchi doira besh bahrdur: sari' va jadid va qariyb va xafif va mushokil, ammo hech qaysi solim emasturlar.

(SARI' BAHRI)
Sari'i (musaddasi) matviyi mavquf

*Yo 'q manga hajringda juz ohu fig 'on,
Ishqu muhabbat o 'tidin al 'amon.
Muftailun muftailun foilon*

Sari'i (musaddasi) matviyi makshuf

*Bizga qizil gul yuzung afkandasi,
Savsani ozod qading bandasi.
Muftaliun muftailun foilon*

Sari'i (musaddasi) matviyi aslam

*Istamasang eslamasang bizni,
Men o 'param yo 'lung uza izni.
Muftailun muftailun fa 'lun*

Sari'i (musaddasi) maxbuni matviyi makshuf

*Qaro ko 'zum, biror biza boq axi,
Jarohatimg'a marhame yoq axi.
Mafoilun mafoilun foilon*

Sari'i (musaddasi) matviyi maxbuni makshuf

*Sendin yana o 't ichradur yurakim,
O 'tumg'a suv ur, vasl ila mirakim.
Mustaf'ilun mustaf'ilun failun*

Uchunchi doiraning ikkinchi bahri jadiddur va ul mustahdas bahr durkim, oni g'arib ham debdurlar.

(JADID BAHRI) Jadidi (musaddasi) maxbun

*Iki ruxsoring erur gul chaman aro,
Araqing yuz uza shabnam suman aro.
Failotun failotun mafoilun*

Uchinchi doiraning uchunchi bahri qariybdur va bu ham mustahdas bahr dur va bu bahr ajam shuarosi she'rida oz voqe'dur.

(QARIYB BAHRI) Qariybi (musaddasi) makfuf

*Jamolingda tahayyurg'a qoldi ko 'z,
Bu ma'nida ulus ichra tushti so 'z.
Mafoiylu mafoiylu foilon*

Qariybi (musaddasi) axrabi makfuf

*Ishqingda ko 'ngul ichra nolalardur,
Yuz uzra yoshim qoni lolalardur.
Maf'ulun mafoiylu foilotun*

(Qariybi musaddasi) axrabi mahzuf

*Kel bizga vafo birla, ey pari,
Bu telbani furqatdin qil bari.
Maf'ulu mafoiylun foilun*

Uchunchi doiraning to'rtunchi bahri xafifdur va bu bahrning matbu' avzonida ajam shuarosi masnaviyalar bitibdurlar.

(XAFIF BAHRI) Hafifi (musaddasi) maxbun

Furqati nesh sochti yurokimga,

*Ashk qonin oqizdi bu etokimga.
Foilotun mafoilun failotun*

Xafifi (musaddasi) maxbuni solimi sadr

*Ey yuzungdin bo 'lub ko 'zum ravshan,
Durru la'l aylabon ani maxzan.
Foilotun mafoilun fa 'lun*

Xafifi maxbuni maqtui musabba'

*Sani ul damki ko 'rdum, ey gulchehr,
Tushti ko 'nglumga orazingdin mehr.
Foilotun mafoilun failon*

Xafifi maxbuni maqtu'

*Kalimoti g 'arib der nosih,
Xirad ahlig 'a hashvdur vozih.
Failotun mafoilun fa 'lun*

Xafifi maxbuni musha'as

*Keldi dildoru men qadah ichgumdur,
Zuhdu nomusu nangdin kechgumdur.
Foilotun mafoilun maf'ulun*

Uchunchi doiraning beshinchi bahri mushokildur va bu ham mustahdas bahrdur. Pahlaviy she'rni ko'prak bu bahrda aytibdurlar.

(MUShOKIL BAHRI)

Mushokili musaddasi makfufi maqsur

*Ishqing ichra manga asru sitamdur,
Ko 'nglum o 'tig 'a charx uzra alamdur.
Foilotu mafoiylu mafoiyil*

Mushokili musammani makfufi maqsur

*Qayda bordi nigorimkim, gum o 'ldi qarorim,
O 'ldi jismi zaifim, kuydi joni nizoram.
Foilotu mafoiylu foilotu mafoiyil*

(MUShOKILI MURABBA')

(Mushokili) murabbai makfuni maqsur

*Ey nigor pariyo 'y,
Gul'uzori sumanbo 'y.
Foilotu mafoiyl
Foilotu mafoiyl*

(Mushokili) murabbai makfuni mahzuf

*Qayda erdi habibim,
G'ussa bo 'ldi nasibim.
Foilotu faulun
Foilotu faulun*

To‘rtunchi doira ikki bahrdur, mutaqorib va mutadorik va ajam tili bila asli masnaviy mutaqorib bahridur.

(MUTAQORIB BAHRI) (Mutaqoribi musamman)

Mutaqoribi musammani solim

*Yana sansizin munisim g'am bo 'lubdur,
Ko 'zumga yurak qoni hamdam bo 'lubdur.
Faulun faulun faulun faulun*

(Mutaqoribi) musammani maqsur

*Manga ko 'yi sayrig 'a yo 'q ehtimol,
Esa olmas ul yon nasimi shamol.
Faulun faulun faulun faul*

(Mutaqoribi) musammani mahzuf

*Ochildi chaman, gul'uzorim qani,
Sihi sarv bo 'ylig 'nigorim qani?
Faulun faulun faulun faul*

(Mutaqoribi) musammani aslam

*Ey sho 'xi zebo, ey sarvi ra 'no,
Bo 'ldum g'ammingdin majnunu shaydo.
Fa 'ulun faulun fa 'ulun faulun*

Mutaqoribi musammani asram

Kelki g'ammingdin jong 'a yetibmen,

*Hajrda o 'lmak chora etibmen.
Fa 'ulu faulun fa 'lu faulun*

Mutaqoribi musammani asrami maqsur

*Kelki g 'amingg 'a bo 'ldum asir,
Zarramanu sen mehri munir.
Fa 'ulu faulun fa 'ulu faulun*

Mutaqoribi musammani maqbuzi aslam

*Agar so 'rarsen va gar tilarsen,
I'zung bilarsen, nekim qilarsen.
Faulu fa 'lun faulu fa 'lun*

Ajam shuarosining mutaaxxirlaridin ba'zi maqbuzi aslam binosin o'n olti ruknga qo'yub nazm aytdurlar, bu nav'kim,

b a y t:

*Yuzung xayolida zor bo 'ldum,
Beling g 'amidin nizor bo 'ldum.
Dedim bu shiddatda nola chekmay,
Netayki, beixtiyor bo 'ldum.
Faulu fa 'lun faulu fa 'lun
Faulu fa 'lun faulu fa 'lun*

Mutaqoribi musammani mahzuf

*Manga, ey sanam, jafo aylading,
O 'zungdin mani judo aylading.
Faulun faul faulun faul*

(MUTAQORIBI MUSADDAS)

Mutaqoribi musaddasi solim

*Yana hajr aro zor bo 'ldum,
Firoqingdin afgor bo 'ldum.
Faulun faulun faulun*

Mutaqoribi musaddasi mahzuf

*Qading sarvi noz, ey yigit,
So 'zung dilnavoz, ey yigit.
Faulun faulun faul*

To‘rtunchi doiraning ikkinchi bahrikim, mutadorik bahridur va ann «rakzul-xayl» va «savtin-noqus» ham derlar, bu nav’dur.

(MUTADORIK BAHRI)

Mutadoriki musammani solim

*Ne mongishdurki, tanlar habosi aning,
Ne boqishdurki, jonlar fidosi aning.
Foilun foilun foilun foilun*

Mutadoriki musammani maxbun

*Ne samand ekon ulki, buyon surasan,
Boshim uzra jafo qilichi urasan.
Failun failun failun failun*

Mutadoriki musammani maqtu’

*Bo ‘lmang bizga hargiz moyil,
Ne holing bordur, ey qotil.
Fa’lun fa’lun fa’lun fa’lun*

Mutadoriki musammani maxbuni maqtu’

*Ishqdin ishim mushkil aylading,
Hajrin manga qotil aylading.
Foilun faul foilun faul*

(MUTADORIKI MUSADDAS)

Mutadoriki musaddasi solim

*Furqatingda mani so ‘rmading,
Rahm ko ‘zi bilan ko ‘rmading.
Foalun foilun foilun*

Mutadoriki musaddasi maxbun

*Mani istamasang netayin,
Bosh olib qayone ketayin.
Failun failun failun*

Mutadoriki musaddasi maqtu’

Eldin ul yuzni yop,

*Ko 'nglumning komin top.
Fa'lun fa'lun fa'lun*

Beshinchı doirakim, andin to‘qquz buhur usuli mustaxraj bo‘lurkim, alar munsarih, xafif, muzori’, muqtazab, mujtass, mushokil, sari’, jadid, qariybdurlar va «doirai mujtamia»g‘a mavsum bo‘lubdur. Avvalg‘i bahr chun «munsarih» erdi, andin bunyod qilurlar, andoqkim:

Munsarihi musaddasi solim

*Ey furqating mahzunlarg ‘a jon olg‘uchi,
Ushshoqni ko‘rgan chog‘da o‘t solg‘uchi.
Mustaf‘ilun maf‘ulotu mustaf‘ilun*

Xafifi musaddasi solim

*O‘lgum erdi bir lahza gar kelmasang, bil,
Qayda erding, ey mahvashim, sharh qilg‘il.
Foilotun mustaf‘ilun foilotun*

Muzori’i musaddasi solim

*Enging oydur, orazing gul, soching sunbul,
Bular shavqidin icharmen tunu kun mul.
Mafoiylun foilotun mafoiylun*

Muqtazabi (musaddasi) solim

*Kelmas bizga ul kofiri qotil dame,
Vahki, bizni o‘lturgusi oning g‘ami.
Maf‘ulotu mustaf‘ilun mustaf‘ilun*

Mujtassi (musaddasi) solim

*Ey orazing guldin ortuq gulshan ichra,
Sendin yiroq xotirimdur shevan ichra.
Mustaf‘ilun foilotun foilotun*

Mushokili (musaddasi) solim

*Necha sensiz firoqingda fig‘on aylay,
Nola birla ulus bag‘rini qon aylay.
Foilotun mafoiylun mafoiylun*

Sari’i (musaddasi) solim

*Sendin yiroq ko‘zning erur hayronlig ‘i,
Hajring aro har lahza sargardonlig ‘i.
Mustaf‘ilun mustaf‘ilun maf‘ulotu*

Jadidi (musaddasi) solim

*Ne balolig ‘hajr erurkim zor o ‘lmisham
Kelki, ul ko ‘z hajrida bemor o ‘lmisham.
Foilotu foilotu mustaf’ilun*

Qariybi (musaddasi) solim

*Jamolingdin quyosh asru bor uyotlig’,
Sochingg‘a banda bog‘ ichra sunbul otlig’.
Mafoiylun mafoiylun foilotun*

Oltinchi doiraki, andin ikki bahr mustaxraj bo‘lur, bu ham ajam shuarosi aruzlarida ko‘rulmaydurkim, alardin biri komil bahridurur va biri vofir bahrikim, musammani solimda oz she‘r voqi’ bo‘lubtur.

Komili musammani solim

*Ne xayol edi yanakim, ko ‘ngul qushi saydini havas aylading,
Badanimg‘a har soridin xadang urubon anga qafas aylading.
Mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun*

Vofiri musammani solim

*Firoq o ‘tidin kuyar badanim, tafidin erib oqar jigarim,
G‘amim budururki, bog‘lanibon yuzung sori tushmagay nazaram.
Mafoilotun mafoilatun mafoilatun mafoilatun*

Yettinchi doirakim, andin uch bahr mustaxraj bo‘lur va ul arab shuarosi nazmining maxsusidur va alar tavil va madid va basit bahrlaridurlar.

Tavili musammani solim

*Firoqingda jon berdim, boshimg‘a qadam yetkur,
Agar xud tirik ermas, chu yolg‘on dedim o ‘ltur.
Failun mafoiylun faulun mafoiylun*

Madidi musammani solim

*Ey qadingdin sarvg‘a ming xijolat har nafas,
Sarv qadingdin mening ko ‘ngluma yuz ming havas.
Foilotun foilun foilotun foilun*

Basiti musammani solim

*Ey sunbulung halqasi bo ‘ynumg‘a toqib rasan,
Har tobida yuz balo, har torida ming shikan.*

Mustaf'ilun foilun mustaf'ilun foilun

Chun doirag‘a kirgan buhurdin forig‘ bo‘luldi, yana bir necha vaznki, ba’zini ajam shuarosi mutaaxxirlari aytibdurlar va ba’zi bu zamonda nazm topibduri va hech aruzg‘a doxili bo‘lmaydur, agarchi filhaqiqat aruz buhurig‘a doxildurlar, ishorate alar sori qilmoq xoli oz munosabate ermas erdi. Ul jumladin, ramali maxbundurki, har misrai sakkiz rukndurki, bayti o‘n olti bo‘lg‘ay, Xoja Ismat Buxoriyda purbaho debdurlar, bu uslub biladur.

*Qomatu zulfu ko ‘zu qoshu uzoru xat ila xoli
Labingdurki, alarcha emas, ey sho ‘xi sitamgar.
Failotun failotun failotun failotun
Failotun failotun failotun failotun*

*Sarv ila sunbul nargis yangi oyu quyoshu sabzai
Jannat kurainofau gulbarg aro shakkar.
Failotun failotun failotun failotun
Failotun failotun failotun failotun*

Yana turk ulusi, bataxis chig‘atoy xalqi aro shoyi’ avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila yasab, majolisda ayturlar.

Birisi «tuyug‘»durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa’y qilurlarkim, tajnis aytilg‘ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqkim:

(TUYuG‘)

*Yo rab, ul shahdu shakar yo lab mudur?
Yo magar shahdu shakar yolabmudur?
Foilotun foilotun foilon*

*Jonima payvasta novak otqoli,
G ‘amza o ‘qin qoshig‘a yolabmudur?
Foilotun foilotun foilon*

Yana «qo‘shiq»durkim, arg‘ushtak usulida shoyi’dur va ba’zi advor kutubida ul usul zikr bo‘lubdur va ul surud a’robining teva surar hudilari vazni bila madidi musammani solimda voqe’ bo‘lur, aning asli bu nav’durkim,

b a y t:

*Vahki, ul oy hasrati, dardu dog ‘i furqati,
Ham erur jonimg‘a o ‘t, ham hayotim ofati.
Foilotun foilun foilotun foilun*

Ammo bu latif zamonda va sharif davronda bu surudni ramal musammani mahzuf vaznig‘a elitib, musiqiy va advor ilmida muloyim tab’liq benazir yigitlar g‘arib nag‘amot va alhon bila ajab tasarruflar qilib, Sulton sohibqiron majlisida ayturlarkim, aning muloyimlig‘ va xushoyandalig‘i vasfqa sig‘mas va ta’sir va raboyandalig‘i sifatqa rost kelmas, balki ul hazratning ixtiroidur va bu ham ul hazratning Masihoso anfosi natoyijidin istishhodg‘a kelturmak munosibroq erdi, andoqkim,

b a y t:

*Sabzai xatting savodi la'li xandon ustina,
Xizr go 'yo soya solmish obihayvon ustina.
Foilotun foilotun foilotun foilun*

Yana «chinga»durkim, turk ulusi zufof va qiz ko‘churur to‘ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag‘oyat muassir va ikki nav’dur. Bir nav’i hech vazn bila rost kelmas va bir nav’ida bir bayt aytilurkim, munsarihi matviyi mavquf bahridur va yor-yor lafzini radif o‘rnig‘a mazkur qilurlar, andoqkim,

b a y t:

*Qaysi chamandin esib keldi sabo, yor-yor,
Kim damidin tushti o‘t jonim aro, yor-yor?
Muftailun foilon muftailun foilon*

Va yana ham turk ulusida bir suruddurkim, ani «Muhabbatnama» derlar va ul hazaji musaddasi maqsur bahridadur va holo matrukdur, budur,

b a y t:

*Meni og‘zing uchun shaydo qilibsen,
Manga yo ‘q qayg‘uni paydo qilibsen.
Mafoiylun mafoiylun mafoiyl*

Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, aning misraidiin so‘ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘amotig‘a rost keltururlar ermish va ani «mustazod» derlar ermish, andoqkim,

mustazod:

*Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli.
Maf’ulu mafoiylu mafoiylu mafulun*

*Mazhar sanga ashyo.
Maf’ulu faulun*

*Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,
Olam sanga mavlo.*

Yana Iroq ahli tarokimasida surudedur shoyi’kim, ani «aruzvoriy» derlar va aning bayti ko‘prak hazaji musammani solimdadur, andoqkim,

b a y t:

*Saqohum rabbuhum xamri dudog ‘ing kavsarindandur,
Bu mayni ichtikung nuqli hadising shakkarindandur.
Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*

Va yana ramali musammani mahzuf vaznida ham ayturlar, andoqkim,

b a y t:

*Davlati vasl iltimosi ne hikoyatdur mango,
Buki yoding birla jon bersam kifoyatdur mango.
Foilotun foilotun foilotun foilun*

Chun o‘znlarning o‘zmog‘i va o‘zbaklarning budi-budoyi hech vazn bila rost emas erdi, anga taarruz qililmadi, agarchi asarlari bordur, ammo aning aruz ilmig‘a daxli yo‘qtur.

Yana surudedurkim, ani «turkiy» debdurlar, bu lafz anga alam bo‘lubdur va ul g‘oyatdin tashqori dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoyiz aysh ahlig‘a sudmand va majolis oro suruddur, andoqli, salo-tin ani yaxshi aytur elni tarbiyatlar qilibdurlar, turkigo‘ylik laqabi bila mashhurdur va ul dog‘i ramali musammani maqsur vaznida voqi’dur, andoqlim,

b a y t:

*Ey saodat matla’i, ul orazi mohing sening,
Ahli biynish qiblagohi xoki dargohing sening.
Foilotun foilotun foilotun foilon*

Hazrati Sulton sohibqiron bu vaznning g‘oyat ravonlig‘ va latofatidin va ruhparvarlig‘ va salosatidin o‘z devonlarinki, jami’ davovin orasida badanlar aro jondekdur va kavokib ichra xurshidi raxshondek voqi’ bo‘lubdur, boshdin-oyoq iltizom qilib, bu vaznda tartib beribdurlar erdi.

G‘araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqi’ bo‘lubdur, anga zabitae va qonune yo‘q erkondur va ul fan rivoji uchun kishi aruz fannida kitobe yo risolae bitmaydur. Bu xujasta zamondakim, zamon podshohi devon tartib berdilar, muborak xotirlarin she’r vaznig‘a va bayt taqti’ig‘a mashg‘ul qildilar, bu jihatdin she’rning poyasi yetti ko‘kdin o‘tti va bu baytning martabasi bayt ul-haromg‘a yetti; har oyinakim, muloyimtab’lig‘ ozodalar, balki qobilfahm va zehnlik shahzodalar bu sharif ilmg‘a ishtig‘ol ko‘rguzadur erdilar va buhur avzoni va taqti’i va zihofoti va davoyiri ilmidinki, arab fusahosi va ajam bulag‘o va shuarosi ul ilmda kitoblar tasnif qilibdurlarki, onsiz bu fanga vuqufe va shuure bo‘la olmas, bu alfoz nazmida yo‘q erdi va Sulton us-salotinning muborak xotirlari munga multafit bo‘lub, andoqli, kitobning ibtidoe voqi’ bo‘lmish bo‘lsa, e’tiroz bila o‘tmagaylar va sabab bo‘ldi va bu sababdin bu ilm zobitasig‘a qalam suruldi.

Iltimos bu fan ahlidin ulkim, har yerda sahv va xatoe voqi’ bo‘lmish bo‘lsa, e’tiroz bila o‘tmagaylar va isloh qalami bila tuzatgaylar.

R u b o i y:

*To charx davoyiridin o‘lg‘ay ayyom,
To she’r xayolotig‘a yo‘qtur anjom,
To bayt tarokibida bo‘lg‘ay ibhom,
Topsun nazming bila jahon ahli nizom.*